MULOQOTDA PARALINGVISTIK VOSITALAR IFODALANISHI

Asqaraliyeva Xayotxon Akbarali qizi
FarDU 3-kurs tayanch doktoranti
hayotxonasqaraliyeva5@gmail.com

Annotatsiya
Ma’lumki, paralingvistik vositalar ham yozma, ham og‘zakinutq kontekstiga kiritiladi. Ammo, yozma nutqda kontekstning roli juda muhimdir, chunki kontekst faqat lingvistik vositalarni anglatadi va bir yoki bir-birining ma’nosi yopiq birlik ichida o‘rnatilmaydigan hollarda so‘z yoki jumla doirasini kengaytiradi. Maqolada shu kabi masalalar ko‘rib chiqiladi
Kalit so‘zlar: *paralingvistika, imo-ishoralar, fizologik refleks,muloqot, vositalar, fikr.*

KIRISH

Inson fikr ifodalashda tildan foydalanar ekan, ma’lum axborotni tinglovchiga yetkazish jarayonida tilga yondosh bo‘lgan yordamchi (noverbal) vositalardan foydalanadi. Paralingvistik vositalar har bir kishilikjamiyatida kommunikatsiyada tabiiy ravishda nutqni kuzatib boruvchi va to‘ldirib keluvchi ikkilamchi vosita bo‘lgan. Paralingvistika nutqiy muloqot bilan birga fikr, xabar, maqsadni ifodalashda qatnashuvchi imo- ishora, ohang, mimika, gavda harakatlari kabi vositalarni o‘rganadigan sohahisoblanadi. Paralingvistik vositalar sharoitga qarab nutqni ma’lum me’yorga keltirish, xususan, ixchamlashtirish, adresantning maqsadini aniq ifodalash vazifasini bajaradi [1, B.98].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Paralingvistika - bu og‘zaki muloqotga hamroh bo‘lgan va ma’lumot uzatishda ishtirok etuvchi omillarni o‘rganish bilan shug‘ullanadigan yangi tilshunoslik fanidir. Tilshunoslik fani aynan ikkita tushunchani farqlash muhim hisoblanadi: “paralingvistika” va “paratil”; “paralingvistika” - nolingvistik vositalar to‘g‘risidagi fan sifatida,“paratil” esa - lingvistik aloqada ishtirok etadigan vositalarni o‘z ichiga oladi. Fanda ma’lum bo‘lishicha “paralingvistika” termini tilshunoslik faniga yaqinda kirib kelgan bo‘lib, til orqali qo‘llanmaydigan vositalarniifoda etib, u og‘zaki muloqotga asos bo‘lgan va axborotni uzatishda ishtirokyetuvchi omillarni o‘rganadi. Paralingvistika - yozma tilda qo‘llaniladigan vositalar ya’ni undov belgisi, undov va so‘roq belgilarining kombinatsiyasi, chizmalar, grafiklar, matnning grafik segmentatsiyasi va uning qog‘ozda joylashishi, shrift va rang-barang to‘plamlar, noodatiy imlolardir. Masalan, Paratil - bu lingvistik muloqotda ishtirok etadigan vositalar to‘plami. Keng ma’noda artikulyatsiya - bu muloqot jarayonida fonatsiya momentlarining sintezi. Fonatsiya tovush paralingvistik hodisalarni o‘z ichiga oladi hamda artikulyatsiya bilan bog‘liq. Ushbu ishda olib borilgan tadqiqotning dolzarbligi fransuz va o‘zbek tilida yozilgan badiiy asarlar matnlarida ma’lum bir paralingvistik hodisadan foydalanishning maksimal samaradorligini aniqlashdan iborat [2, B.147].

NATIJALAR VA MUHOKAMA

O‘zbek tili tarkibida quyidagi inkor ma’no ifodalovchi kinetik vositalar uchraydi:

1. Boshning gorizantal va vertikal harakatlari jahonning juda ko‘p xalqlarida tarqalgan bo‘lib, tasdiq va inkor ma’noni ifodalovchi bo‘lib xizmat qiladi. Jumladan, o‘zbeklarda ham boshning gorizantal harakati “yo‘q”, vertikal harakati esa “bor” ma’nosini bildiradi. Bu belgilarning tasdiq ma’nosi uchun “bosh irg‘amoq” inkor ma’nosi uchun “boshini chayqatmoq”, “boshini sarak-sarak qildi” kabi ishlatiladi.[3, B.148] Masalan:

- *Maqola paxta kasalliklari, ularni oldini olish va bartaraf etishhaqida. Ahmad tushunarli degandek bosh egib qo‘ydi.* (F.Musajonov. “Ximmat”, 66-bet).

- *Cholim orqaga tisarilib, boshini sarak qildi.*

- *Yo‘q! – dedi xansirab.* (O‘.Hoshimov. “Ikki eshik orasi”, 282-bet).

2. Tasdiq va inkorning semantik qutb belgilari qarama-qarshi kinetik shakllarni talab qiladi. Boshning harakati, xohish qo‘shilganini ifodalab, tasdiq ma’nosini bildiradi. Buning antonimi sifatida suhbatdoshini fikriga, xohishiga kutilmaganini – inkorini ifodalash uchun boshni oldinga harakatga qarama-qarshi tomonga orqaga silkish ham mumkin edi. To‘liq inkorni bildiradi. Bu vaqtda inkor ifodalovchi imo-ishoralardan harakterli belgisi, asosan, ***-mi*** yuklamasi orqali ifodalangan so‘roq gaplarga javob bo‘lib kelgan. Bu esa logik urg‘u kesimining tarkibida bo‘ladi.

Masalan: - *Ruchkang bormi?* Javob: Boshning gorizantal harakati.

-*Qiz “yo‘q” degandek bosh chayqadi*. (F.Musajonov. “Ximmat”, 11-bet).

3. Inkor ma’nosini kuchaytirish uchun ba’zan bunday gaplarda ham imo-ishoralardan so‘ng yana inkor bildiruvchi javob verbal ifodalanishi mumkin. Masalan: - *Meni qo‘yaver, o‘zim ketaman. Qiziq. Olimjon kattalardek xotirjam bosh chayqadi.(*F.Musajonov. “Ximmat”, 15-bet*)*.[4, B.247]

XULOSA

Taxlilarimiz natijasida, paralingvistik vositalarni o‘rganish vatadqiq etish muhim ahamiyat kasb etadi. Paralingvistik vositalar fikrni ifodalashda eng sodda, eng tejamli vosita hisoblanadi. Shuningdek, ma’lum bir xabar tashishda lingvistik vositalarda yordam beradi, ba’zi o‘rinlarda hatto lingvistik vositalar vazifasini ham bajaradi. Nutqsiz vositalar mustaqil emas, balki yordamchi aloqa vositasidir. Ular nutqni tayyorlaydilar, hamrohlik qiladilar, izohlaydilar, tushuntiradilar, uning chuqur mohiyatini ochib beradilar. Shuning uchun, ularni ishlatishdan oldin, nima haqida gaplashishni bilish kerak.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Begmatov E. Hozirgi o‘zbek adabiy tilining leksik qatlamlari. T.: Fan.2015. -199 b.
2. Doniyorov X. Qipchoq dialektlarining leksikasi. T.: 2001. – 205 b.
3. Nurmonov N.A. O‘zbek tilining paralingvistik vositalari. Andijon.2010. -197 b.
4. Tursunov U., Muxtorov J., Rahmatullaev Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili.T.: 2015. -367 b.